

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimida tahsil olayotgan izlanuvchilar ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini o'rganish bo'yicha savolnoma

I. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshirish:

a) o'qishning birinchi yilida:

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tasdiqlangan yakka tartibdagi rejaning mavjudligi va uning bajarilishi;

ixtisoslik bo'yicha tasdiqlangan nazariy-metodologik dasturning mavjudligi va uning bajarilishi;

tegishli jurnallarida dissertatsiya mavzusi bo'yicha kamida bitta ilmiy maqolaning chop etilganligi;

ilmiy konferensiyada dissertatsiya mavzusi bo'yicha ma'ruza bilan ishtirok etganligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tahliliy umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumotning mavjudligi;

ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi seminarida dissertatsiya mavzusiga doir tahliliy umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot natijalari bo'yicha (ilmiy rahbar bilan birgalikda) ma'ruza qilganligi;

b) o'qishning ikkinchi yilida:

tegishli jurnallarida dissertatsiya mavzusi bo'yicha hisobot davrida chop etilgan kamida bitta ilmiy maqolaning mavjudligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha hisobot davrida ilmiy konferensiya materiallarida kamida bitta chop etilgan ma'ruza tezisining mavjudligi;

tegishli xorijiy jurnalda dissertatsiya mavzusi bo'yicha kamida bitta chop etilgan ilmiy maqola mavjudligi;

ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi ilmiy-tashkiliy bo'linmasi (kafedra, laboratoriya, bo'lim, sektor) ilmiy seminarida dissertatsiya ishining dastlabki natijalari bo'yicha (mustaqil) ma'ruza bilan ishtirok etganligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha yakka tartibdagi rejasining bajarilishi bo'yicha hisobot berganligi;

v) o'qishning uchinchi yilida:

jurnallarda, shu jumladan xorijiy jurnallarda soni belgilangan talablarga muvofiq chop etilgan ilmiy maqolalari mavjudligi;

OAK talablariga muvofiq tayyorlangan tugallangan dissertatsiya ishi, avtoreferatining mavjudligi;

ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi ilmiy-tashkiliy bo'linmalari majlislarida dissertatsiya va avtoreferatining ko'rib chiqilganligi va muhokama qilinganligi.

II. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun izlanuvchilar faoliyatining samaradorligi monitoringi quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

a) o'qishning birinchi yilida:

dissertatsiya mavzusi bo'yicha yakka tartibdagi rejaning mavjudligi va uning bajarilganligi;

dissertatsiyaning birinchi va ikkinchi boblari tayyorligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tegishli jurnallarda kamida uchta ilmiy maqola chop etilganligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar materiallarida kamida bitta ma'ruza tezisi chop etilganligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy konferensiya yoki seminarda ma'ruza qilganligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tahliliy sharhi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tahliliy sharh natijalari bo'yicha seminarda so'zga chiqqanligi;

b) o'qishning ikkinchi yilida:

dissertatsiyaning uchinchi va to'rtinchi boblari tayyorligi;

tegishli jurnallarda dissertatsiya mavzusi bo'yicha hisobot davrida chop etilgan kamida to'rtta ilmiy maqola e'lon qilinganligi (jumladan bittasi xorijda);

dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalar materiallarida chop etilgan kamida bitta ma'ruza tezisining mavjudligi;

dissertatsiya ishining dastlabki natijalari bo'yicha seminardan o'tganligi;

konferensiya yoki seminarda ma'ruza bilan qatnashganligi (kamida bir marta);

dissertatsiya mavzusi bo'yicha yakka tartibdagi rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisoboti;

v) o'qishning uchinchi yilida:

tegishli jurnallarda dissertatsiya mavzusi bo'yicha hisobot davrida chop etilgan kamida uchta ilmiy maqola e'lon qilinganligi;

dissertatsiya natijalari bo'yicha (ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha) chop etilgan monografiyaning mavjudligi;

OAK talablariga muvofiq tayyorlangan tugallangan dissertatsiya ishi va avtoreferatning mavjudligi;

dissertatsiya yoki avtoreferatni ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi ilmiy-tashkiliy bo'linmalarida ko'rib chiqilganligi va muhokama etilganligi.